

“TASDIQLAYMAN”

Sirdaryo viloyat hokimligining
qurilish bo'yicha “Yagona buyurtmachi
xizmati” injiniring kompaniyasi
direktori N.Xudoynazarov



« » 2022- y.


Sirdaryo viloyati hokimligining qurilish bo'yicha Yagona buyurtmachi xizmati
injiniring kompaniyasi fasad qismini joriy ta'mirlash bo'yicha

TEXNIK TOPSHIRIQ

| № T/r | Asosiy ma'lumotlar va talablar ro'yxati | Asosiy ma'lumotlar va talablarning mazmuni |
|-------|---|--|
| 1 | 2 | 3 |
| 1 | Buyurtmachi | Sirdaryo viloyat hokimligining qurilish bo'yicha “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasi |
| 2 | Loyihani amalga oshirish uchun asos | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.05.2021 yildagi 321-son qarori. |
| 3 | Moliyalashtirish manbai | O'z mablag'lari hisobidan. |
| 4 | Obyektning chegaraviy narxi | 252 092 922 so'm QQS bilan, 219 211 236 so'm QQS siz |
| 5 | Loyiha tashkiloti (Bosh loyihachi) nomi | "Nanoproekt va texnologiya" MCHJ |
| 6 | Qurilish ishlarini tugatish muddati | Pudrat shartnomasi Ga'znachilik ro'yxatidan o'tgan kundan boshlab 50 kun. |
| 7 | Xavfsizlik ishlari shartlari | Normativ hujjatlar talablariga rioya qilish. Obyektda yong'in xavfsizligi, mehnatni muhofaza qilish va sanitariya-gigiyena rejimiga rioya qilish uchun javobgarlik pudratchiga tegishli bo'lib, javobgarlik buyruq bilan belgilanadi, buyruq nusxasi buyurtmachiga beriladi. |
| 8 | Qabul qilinayotgan loyiha qarorlarining energiya samaradorligini ta'minlash bo'yicha talablar | Qurilish montaj ishlarini amalga oshirish davrida energiya tejamkor uskunalardan foydalanish. |
| 9 | Qurilish murakkabligi toifasi | Obyektning murakkablik darajasi bo'yicha — I kategoria |
| 10 | Nazorat talablari va ish natijalarini topshirish tartibi | Joriy ta'mirlashda ishtirok etuvchi ishlar rahbarlari quyidagilarga masuldirlar: - amaldagi qurilish materiallari sifatini nazorat qilish; - bajarilayotgan ta'mirlash ishlari sifatini tezkor nazorat qilishni ta'minlash; - ta'mirlash ishlarini ishlab chiqarishda texnologik intizomga rioya etilishini |

| | | |
|----|---|---|
| | | <p>tekshirish;</p> <ul style="list-style-type: none"> - yashirin ishlarni o'z vaqtida bajarish; - barcha turdagi ta'mirlash ishlari uchun ijro hujjatlarini nazorat qilishni ta'minlash; - kelishilgan jadvallarda nazarda tutilgan muddatlarda ta'mirlash ishlarini bajarish; - tekshiruv natijalari bo'yicha qo'shimcha ishlar hajmini aniqlash va nuqsonlar qaydnomalarini, dalolatnomalarini tuzish. <p>Bajarilgan ishlarni qabul qilish buyurtmachi tomonidan tayinlangan komissiya tomonidan, ushbu topshiriq va LSH(Loyiha smeta hujjatlari) da ko'zda tutilgan alohida va barcha ishlarni tugatgandan so'ng – KMK 3.01.04-04 "Tugallangan qurilish loyihalarini qabul qilish. Asosiy qoidalar"asosida amalga oshiriladi va tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi.</p> |
| 11 | Obyektni moliyalashtirish tartibi | Bo'nak-30% joriy moliyalashtirish — bajarilgan ishlarning hajmidan 70%. |
| 12 | Pudratchiga texnik va boshqa hujjatlarni topshirish bo'yicha talablar | Pudratchiga belgilangan tartibda tasdiqlangan va kelishilgan ishchi loyihaning chizmalari, ish hajmlarining elektron shakli (MC Exel formatida) taqdim etiladi. |
| 13 | Ish sifati kafolatlarining hajmi va muddati bo'yicha talablar. | <p>Barcha ishlarni ushbu loyihaga muvofiq qurilish qoidalari va ishlarni tashkil etish, ishlab chiqarish va qabul qilish qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.</p> <p>Pudratchi ishni texnologik xaritalarga muvofiq amalga oshiradi.</p> <p>Ta'mirlash ishlarini olib borishda moddiy zarar yetkazilgan taqdirda, buyurtmachi va pudratchi 3 kun ichida tekshirish aktini tuzishi va zararni qoplash to'g'risida qaror qabul qilishi shart.</p> |
| 14 | Loyihalash bosqichi | Bir bosqichli loyiha |

**Birlamchi-ruxsat beruvchi,
loyiha va tanlov hujjatlarini
tayyorlash bo'lim boshlig'i**


(imzo)

S.Musaev